



Xabibulla BAKIYEV,

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: [khabibullabakiyev@gmail.com](mailto:khabibullabakiyev@gmail.com)

Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, f.f.d B.Mengliyev taqrizi asosida

## ABOUT THE HISTORY OF THE FORMATION OF THEORIES ON THE METHODOLOGY OF READING COMPREHENSION ASSESSMENT

### Annotation

Looking at the history of research, it becomes clear that "reading comprehension" as a concept does not have a long past. Until the 17th - 19th centuries, the ability to read and understand was understood as the ability to express orally, but the first systematic approaches as a field were implemented at the beginning of the 20th century. However, its components, foundations, and cognitive processes were not well studied and adequately substantiated in reading comprehension assessment contexts until the 1990s. This article looks at the history of the development of the field of assessment of reading comprehension skills and talks about the specific characteristics of the studies of each period.

**Key words:** Reading comprehension assessment, cognitive approach, taxonomy, reading comprehension tests.

## ОБ ИСТОРИИ ФОРМИРОВАНИЯ ТЕОРИИ МЕТОДИКИ ОЦЕНКИ ПОНИМАНИЯ ПРОЧИТАННОГО

### Аннотация

Из истории исследований известно, что термин «понимание прочитанного» является относительно новым. До 17-19 веков под умением читать и понимать понималось умение выражать мысли устно. Первые систематические научные подходы к изучению данной умственной деятельности были реализованы в начале 20 века. Однако до 1990-х годов компоненты, основы и когнитивные процессы данного навыка не были достаточно изучены и обоснованы в контексте оценки понимания прочитанного. В статье рассматривается история развития области оценки навыков понимания прочитанного текста и рассказывается об особенностях исследований каждого периода.

**Ключевые слова:** Оценка понимания прочитанного, когнитивный подход, таксономия, тесты на понимание прочитанного.

## О'QIB TUSHUNISH MALAKASINI BAHOLASH METODIKASIGA OID NAZARIYALARNING SHAKLLANISH TARIXI HAQIDA

### Annotatsiya

Tadqiqotlar tarixiga nazar tashlansa, "o'qib tushunish" konsepsiya sifatida uzoq o'tmishga ega emasligi ma'lum bo'ladi. XVII – XIX asrlargacha o'qib tushunish malakasi og'zaki bayon qila olish malakasi bilan anglashilgan bo'lsada, soha sifatida ilk tizimli yondashuvlar XX asrning boshlarida amalga oshirilgan. Biroq uning tarkibiy qismlari, asoslari va kognitiv jarayonlari 1990-yillarga qadar o'qib tushunish malakasini baholash kontekstlarida yaxshi o'r ganilmagan va yetarli darajada asoslanmagan. Ushbu maqola o'qib tushunish malakasini baholash sohasining rivojlanish tarixiga nazar tashlab, har bir davr tadqiqotlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritadi.

**Kalit so'zlar:** O'qishni tushunish malakasini baholash, kognitiv yondashuv, taksonomiya, o'qib tushunish malakasi testlari.

**Kirish.** Yozma ma'lumot va axborotni tushunishga bo'lgan zaruriyat insoniyatning birlamchi ehtiyojidir. Matn haqidagi ta'limot kelib chiqishi ikki qadimiy soha - ritorika va filologiyaga borib taqaladi. Demak, matnning lingvistik nazariyasi ritorika va filologiyadan kelib chiqqan deb taxmin qilishimiz mumkin. Bu ikki soha matn nazariyasining shakllanishida o'tgan asrning o'rta larda muhim ro'l o'ynagan. Ritorika notiqlik nazariyasi va amaliyoti yoki notiqlik san'ati sifatida antik davrda keng rivojlangan. Ritorika dastavval insoniyatga notiqlik san'atini o'rgatish vazifasini olgan ya'ni, insonning og'zaki nutqini rivojlantirish birlamchi vazifa hisoblangan. Uning ilk nazariyasini tashkil etuvchi elementlarini ixtiro (yangi g'oya), dispozitsiya, ifoda, xotira, va gap tashkil qilgan [1]. U davrda matn kommunikativ vosita sifatida qaralgan va uning tushunganlik darajasi notiqlik qobiliyat va eslab qolish qobiliyati orqali baholangan degan taxminga kelish mumkin.

Keyinchalik diniy ma'lumotlarni o'rganishda matn mazmunini anglash yana dolzarblikni kasb etgan. Islom dini ta'siri ostidagi hududlarning ta'limi, shubhasiz, diniy ta'lim bilan simbiotik munosabatlardan kelib chiqqan [2]. Qur'on nozil bo'lgach, islom diniga e'tiqod qiluvchilar ushbu muqaddas kitobning ma'nolarini mukammal o'rganishga bo'lgan harakatlar matnni tushunish yo'nalishi rivojiga katta turki bo'ldi. Qur'onning to'liq ne'matlariga ega bo'lish maqsadida o'qish va yozish ko'pchilik musulmonlar uchun orzu hisoblangan. Abu Usmon Johiz "Bayon va tabyin" hamda "Nazmul Qur'on" asarlarda matn tadqiqiga oid bayon, fasohat, balog'at kabi bir

qancha tushunchalarini ifoda etdi. XII-XIV asrlarda matn tahlili va tadqiqi mustaqil soha sifatida shakllandi. Sakkokiying matn turlari va tahlili hamda o'z qarashlari kelib chiqqan "Miftohul ulum" asari ushbu hodisaning dalilidir. Jaloliddin Muhammad ibn Abdurahmon (Xatib Qazviniy)ning "Talxisul Miftoh" asari "Miftoh" yo'nalishimi tadqiq etish uchun yaratilgan bo'lib, unga matn xususiyatlarini va tilning imkoniyatlarini ochib beruvchi soha sifatida qaraydi [3]. Yuqoridagi harakatlar natijasida arab tilining sir-asrorlarini ochuvchi, uning jihatlarini ko'rsatib beruvchi balog'at nomli mustaqil ilm paydo bo'ldi. Bundan tashqari, "Usulut tafsir" fani orqali Qur'on oyatlarining mazmunini tahvil qilish orqali uning mazmunini tushunish bo'yicha metodik asos vujudga keladi.

Ma'lumki, Qur'onni yod olish va qiroat qilish (tajvid) yo'nalishi uning mazmunini tahvil qilish (tafsir) qilish sohasidan ustun bo'lib kelgan. Madrasalarda talabalar 3 bosqichda: boshlang'ich (adno), o'rtा (avsat) va yuqori (a'lo) guruhlariga ajratilgan holda olib borilgan. Talabalar adno bosqichini "Aqid" kitobigacha, avsat bosqichi "Aqoid" kitobini o'qishdan boshlab, "Sharhi mullo" kitobini o'rganguncha va undan keyingi kitoblar a'lo bosqichida davom ettirgan [4]. Talabaning keying bosqichga o'tishi uning ma'lum bir kitobni mutolaa qilishi orqali amalga oshirilgan.

Xristian olamida Bibliya o'zgacha matn hisoblanib, uni o'qish uchun maxsus metodikani qo'llash zaruriyati ilgari suriladi. Ya'ni, boshqa matnlar farqli ravishda injilga xos bo'lgan yondashuv vositasida interpratitsiya qilish kerakligiga urg'u

beriladi. Qadimgi yahudiy cho'lida yashagan Qumran jamiyatini bir necha asrlar davomida taraqqiy etib kelgan. Ularning boy kutubxonasiida Bibliyaning ko'plab talqiniga oid adabiyotlar mavjud. Misol uchun, o'zlarining Pesher Xabakkuk nomli sharhini payg'amarb tomонидан qoldirilgan Xabakkukdan ko'ra mukammalroq tahlilga ega deb bilishadi. Aslida Pesher Xabakkuk talqini asl Xabakkukdan farqli ravishda 500 yil keyinroq uni tarjima qilgan muallif davri kontekstida talqin qilingandir. Nemis olimi Yuliy Vellxauzen 1878 yilgi asari yordamida Bibliyani o'qish uchun yangi metodiga asos soldi [5]. Garchi uning zamondoshlariga yangi o'qish metodi ma'qul kelgan bo'lsada, ba'zi olimlar ravvin o'qish usulini avzalligni uqtirishda davom etdi.

O'qib tushunish malakasi 20-asrga kelibgina alohida tadqiq va maxsus yondashuv orqali o'rganila boshlandi [6]. Buning asosiy sabablari sifatida XVII – XIX asrlargacha o'qib tushunish malakasi og'zaki bayon qila olish malakasi yoki notiqlik qobiliyati bilan anglashilgan [7]. Ba'zan baholash vositasidan ta'lim jarayonida subyektiv maqsadlarda (adabiyot, madaniyat haqidagi bilim va tarjima mahoratini aniqlash uchun) foydalilanigan. Bundan tashqari, o'qish turli dinlar rivojida ham keng tadbiq etilgan bo'lsada, shaxsnинг matnni tushunish darajasini aniqlash chetda qolib kelgan. Bu jarayonda matnni yod olish baholash uchun kifoya qilgan [8].

O'qib tushunish malakasini baholash ustidagi birinchi tizimli yondashuvlar birinchi Jahon urushidan oldin ko'zga tashlangan. 1896 yilda Alfred Binet va Viktor Anri psixolog olimlar taklif etgan aqliy testlarni o'rganib chiqdi va ularning birontasi mukammal emasligi haqida xulosa qilishdi. O'sha paytdagi ilmiy topilmalar yuqori intellektual jarayonlarni e'tiborsiz qoldirgan edi [9]. Mualliflar o'nta jarayonni qamrab olishga mo'ljallangan bir qator yanada fundamental testlar tavsuya etildi. Ushbu sohada ko'plab ajoyib testlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular eng katta individual farqlarni ko'rsatish uchun tanlangan [10]. 1914 yilda amerikalik mashhur fan arbobi Frederik Kelli bir necha tanlovlari test turlariga asos solib, ikki yildan so'ng o'qib tushunish ko'nikmasini baholashning ilk bosma shakli – Ovozsiz Kanzas o'qib tushunish malakasini baholash testlarini (Kansas Silent Reading Tests) taqdim etdi. Edvard Torndayk o'zining 1917 yilgi klassik "O'qish mulohaza uchun" asarida o'qish jarayonida odam miyasida yuz beradigan o'zgarishlarni birinchi marta tadqiq etdi. Tushunish fenomenologik hodisa sifatida mayjudligi tadqiqotchilarini doimo uning yangi va o'ziga hos bo'lgan jihatlarini kashf qilishga undagan.

Yuqodridagi ma'lumotlarga tayanib aytishimiz mumkinki, o'qib tushunish malakasini baholash sohasidagi tadqiqotlar dastlab Amerikada turli sabablarga ko'ra rivojlandi. Asosiy sabablardan biri sifatida o'suvchi demografik vaziyatni keltirishimiz mumkin. O'rta ta'lim tizimi immigratsiyaning katta to'lg'irlari, jadal sanoatlashayotgan jamiyat, bolalar mehnatiga qo'yilgan taqiqlar va maktab yoshidagi fuqarolarning ta'lim olishi to'g'risidagi qonunlarga moslashishga majbur edi. Bundan tashqari, savodxonlik darajasi noma'lum bo'lgan o'quvchilar soni yuqori edi. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun arzon va samarali skrining qurilmasiga bo'lgan ehtiyoj keskin oshdi. Xuddi shu davrda psixologiya boshqa fanlar qatori "fan" maqomini olishga intildi. Amerikada bixevoiristik qarashlar maktablari, ularning o'lchamlarga aoslangan psixologiya sohasi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi [11]. Shunday qilib, psixologlar yaratgan arzon va samarali testlar orqali ilmiy asoslangan o'qib tushunish malakasini baholash sohasi dunyoga keldi.

O'qib tushunish malakasini baholash sohasi taraqqiyotiga o'quv auditoriyalarida tushunish darajasini aniqlashning "ovozsiz" shaklini joriy qilinishi ham katta turtki bo'ldi. Ilk tushunishni baholash shakli og'zaki savol-javob ko'rinishda taxminan 1914 yil Uilliam Grey tomonidan yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, o'tgan asrning birinchi yarmidagi tadqiqotlar baholashning yozma shakliga qaratildi [12]. Har bir respondent va u bergen har bir javobga alohida e'tiborni talab qiladigan og'zaki savol-javobdan farqli ravishda ovozsiz kechadigan imtihon shakli guruh sharoitida o'tkazish imkoniyatini yaratib, soha mutaxassislarining ishtirokini talab qilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, e'tibor matnni tushunishning ovoz chiqarib "ochiq" o'qish va tushungan ma'lumotlarni hikoya qilib berish usulidan

ko'p tanlovli test va uning vaqt bilan chegaralangan "yopiq" turiga qaratildi. Bu amaliyot samaradorligi tufayli 70-yillardning boshlaridagi kognitiv inqilobgacha, bir nech o'n yil mobaynida ommaviylashdi. Shuni ta'kidlash joizki, test unsurlarining shakllanishiда o'qituvchilar o'z dasturlarida va dars jarayonida azaldan qo'llab kelgan topshiriq turlari asos vazifasini bajarib kelgan. Bunday topshiriq turlariga matnning asosiy g'oyasini aniqlash, muhim tafsilotlarni qayd etish, hodisalar ketma-ketligini aniqlash, sabab-ta'sir munosabatlarni ajratish, taqqoslash va farqlarini ajratish va xulosalar chiqarish kabi mashq turlaridir.

O'sha davrda bixevoirizm o'quv dasturlari va baholash sohasidagi dominant paradigma sifatida tilga olinsada, kognitiv yondashuvning ilk belgilari ham asta sekin ko'zga tashlanan boshlandi [13]. Inson faoliyatini baholashda kognitivizm bixevoiristik yondashuvdan quyidagicha farqlanadi: a) bixevoiristik yondashuvda inson hatti-harakatlari tashqi muhit ta'siri bilan belgilanadigan, ko'p hollarda ongsiz reaksiyalar majmuasi sifatida tushuniladi; b) kognitiv yondashuvda bu hatti-harakatlarda onglilik — ta'lim asosida hosil qilingan malaka va ko'nikmalar ustunligi tan olinadi [14]. Erkin yodga olish ko'nikmasi bir nechta tadqiqotchilar tomonidan tushunish ko'rsatkichi sifatida qo'llanilgan. Masalan, D. Starch va S. Kortis turli xil nisbatlar ustida ish olib bordilar. D. Starch yaratgan nisbatida ko'rsatkichi sifatida o'quvchining bir matnda eslab qolgan so'zlar sonini umumiy so'zlar soning proporsiyasi bilan solishtirib aniqlagan. S. Kortis D. Starchning metodiga o'xshash, ammo oddiyroq uslubni ishlab chiqdi. Yuqoridagi nisbatlar 1970 va 1980 yillardagi matn mazmunni tushunganlikni aniqlash tendensiyasining ilk belgilari sifatida ko'rishimiz mumkin. Ushbu dastlabki bosqichda ham, olimlar eslab qolish ko'nikmasini tushunish ko'nikmasidan farqli ekanligini anglab yetishgan [15] ammo eslab qolish jarayoni keyingi tadqiqot va amaliyotlarda ham o'qib tushunish malakasining ko'rsatkichi sifatida qo'llanib kelingan.

Zamonaviy ta'limda tezlik o'qib tushunish malakasini baholashning o'ziga xos bir omili sifatida ko'rildi. Tilshunos olimlar Frederik Kelli va Uil Monrolar turli topshiriq turlaridan foydalanim, o'z tabalalarida vaqt bilan ishslash prinsipini qo'llagan. O'tgan asrning oxirgi choragida metakognitiv jarayonlarni keng tadqiq etadigan psixologlar tomonidan matnda xato topish kabi mashqlar keng foydalilanigan. Misol uchun J. Chapman o'quvchilardan har bir paragrafning ikkinchi yarmidagi noto'g'ri shakldagi yoki nomuttanosib so'zlarini aniqlashni so'ragan. 1936 yilda A. Yurich kengroq ko'lamni qamrab olgan holda o'quvchilardan namuttanosisi gaplarni aniqlashni talab qilgan.

Psixolog olim Edvard Torndayk 1917 yilda tushunish va baholash metodlari ustida birinchi bo'lib ish olib borganligi ta'kidlanadi [16]. U o'qishni mulohaza yuritish bilan bog'lab, uning tarkibiga kiruvchi bir nechta omillar — gapdag'i elementlar, ularning tarkibiy qismlari, ular orasidagi munosabatlari, ma'lum bir konnatasiyani boshqasidan afzal ko'rish va boshqa ichki xususiyatlari haqida o'z fikrlarini keltirgan. U "ana'naviy o'qish" jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hodisalar to'g'risida o'z tahminlarini bayon qilgan. Uning fikricha, ba'zi so'zlarning boshqa so'zlardan chuqurroq ma'nodorligi o'zaro muttanosisiblikni yo'qqa chiqaradi va paragraf mazmunini anglash huddi matematik tenglamani yechish bilan barobar. Bu vaziyatdagi mos elementlarni tanlash va ularni to'g'ri munosabatlarda birlashtirish muhim hisoblanadi [17]. Uning so'zlariga ko'ra, o'qish paytida ong matndagi g'oyalarni tartibga solishi va tahlil qilishi kerak. Torndayk o'qishni ko'pqirrali va murakkab kognitiv jarayon sifatida tasavvur qilgan. Bu qarash 1970-yillardagi kognitiv inqilob davrigacha ommalashmadidi.

Ba'zi tadqiqotchilar Torndaykning o'quvchilar tomonidan tez-tez yo'l qo'yiladigan xatolari haqidagi qarashlariga ergashib, dekodlash yoki tushunish jarayoniga oid taksonomiyalarini ishlab chiqishga harakat qilishdi. F. Touton va B. Berri kollej o'quvchilari ustida olib borgan tadqiqotlari asosida xatolarni oltila toifaga ajratdi: (a) savolni tushunmaslik, (b) kontekstda asosiy mazmunni o'chib beruvchi gapnining elementlarini ajrata olmaslik, (c) kontekstda o'zaro bog'liq elementlarni birlashtira olmaslik, (d) asosiy mazmunni tushunish uchun zarur bo'lgan g'oyalarni anglay olmaslik va inobatga olmaslik, (e) konteksti bir yaxlit ko'rinishga keltira olmaslik va (f) noto'g'ri javoblarni ajrata

olmaslik. Garchi K. Gudman 1920- yillarda paydo bo'lgan ovoz chiqarib o'qitish orqali baholash yoki uning ta'biri bilan aytganda misk (miscue) tahlili orqali tushunish jarayonlari borasida salmoqli ishlarni amalga oshirgan bo'lsada uning yo'nalishiga shubha bilan qaraydiganlar ham topilgan. Frederik Devis o'z dissertatsiyasida ochib bergen yangi turdag'i tahlil shakli, o'qib tushunish malakasining alohida ko'nikmalarini baholovchi test turlari (matning asosiy g'oyasini aniqlash, matn tafsilotlarni tushunganlik darajasini aniqlash, alohida so'zlarning matndagi ma'nosini ajratish, xulosa qila olish, ma'lum natijaga olib kelgan sabablarni tushunish, subyektiv fikr bilan faktini farqlay olish kabi) psixometrik xarakterga ega edi. Albatta, ushbu yangilik soha vakillariga o'z yo'znalishlari bir kichik yaxlit ko'nikma tadqiqoti emasligini aksincha, bir nechta kopponentlardan iborat murakkab malaka ekanligini tushunishga yordam berdi. Shundan kelib chiqqan holda har bir ko'nikma alohida baholanish hamda tadqiqot yondashuvning obyekti sifatida gavdalandi. 1960-1970 yillar mobaynida ham F. Devisning taqiqot natijalari bilan bog'liq izlanishlar davom etdi. Navbatdag'i 10 yillikda avvaliga mayjud test turlariga nisbatan baholash mumkin bo'lgan ko'nikmlar soni nomuttanosis degan g'oya ilgari surilgan bo'lsada ko'nikmalar alohida baholanishi lozimligi haqidagi qarash hukmronlik qildi.

**Xulosa.** Xulosa qilinganda, matning lingvistik nazariyasiga kelib chiqishi antiq davr bo'lgan, ixtiro (yangi g'oya), dispozitsiya, ifoda, xotira, hamda gap kabi tarkibiy qismlardan tashkil topgan ritorika va filologiya asos vazifasini bajargan. Keyinchalik Qur'on va Bibliya kabi diniy kitoblarning

mazmunini o'rganishga bo'lgan intilishlar matnni tushunish yo'nalishi rivojiga o'z hissasini qo'shdi. O'tgan asr boshlarida o'qib tushunish malakasi alohida tadqiq va maxsus yondashuv orqali o'rganila boshlandi. U davrgacha ushbu malaka notiqlik obiliyati, adabiyot, madaniyat haqidagi bilim va tarjima mahoratini aniqlash orqali baholangan. Ushbu jarayon og'zaki ko'rinishga ega bo'lgan. Katta sonli savodsiz aholi qatlamaqa ta'lim berish va industriya rivojlanishi yechimi sifatida bixevidoristik qarashlarga ega psixologlar tomonidan ilmiy asoslangan o'qib tushunish malakasini baholash sohasi yaratildi. Endi ko'plab talabgorlarning ishlari maxsus skrining qurilma orqali tekshirilib, yozma ko'rinishga ega bo'ldi. Keyingi davrda bixevidoristik baholash metodlari bilan bir qatorda inson o'rganish orqali egallanadigan malaka va ko'nikmalarga alohida e'tibor qaratuvchi kognitiv yondashuvli testlari ham qo'llanila boshlandi. Bu orqali soha matn mazmunini tushunishni baholash bosqichiga o'ta boshladи. Kognitiv inqilob o'z navbatida dekodlash va turli taksanomiyalar yaratilishiga olib keldi. 20-asrning ikkinchi qismida matn ilgari surgan g'oyani bilish, matnda keltirilgan turli detallarni tushunish, so'zlarning matnda tutgan o'rmini aniqlash, xulosa qila olish, sabab va ta'sir omillarini ajratish va subyektiv fikr bilan faktini farqlay olish kabi psixometrik tamoyillarni o'z ichiga olgan tadqiqotlar olimlar diqqat markazida bo'ldi. Ular o'qib tushunish malakasi turli qismlardan iborat bo'lgan kopponentlardan iborat murakkab malaka ekanligini tushunishga yordam berdi.

#### ADABIYOTLAR

- Чувакина А.А. Основы теории текста. Олтой далат университети. 2003-у. В-6
- Bredli J. Kuk. <https://education.stateuniversity.com/pages/2133/Islam.html>
- “Talxisul “Miftoh”. Muhammad ibn ar-Rahmon Abduddin Jalol al-Xatib al-Qazviniy. Al-Asriya kutubxonasi. Bayrut. B-37
- Muxammadali Qahramon o'g'li Nabiyev. O'rta asrlarda madrasalar faoliyati va ularda o'qitilgan fanlar. “Talqin va tadqiqotlar” Respublika ilmiy-uslubiy jurnalı №8. 2022 B-18
- Marc Zvi Brettler. How to Read the Bible Through History. Jewish Publication Society. 2005-y
- P. David Pearson. The assessment of reading comprehension: key historical influences in the USA. 2007. B-77
- P. David Pearson. The assessment of reading comprehension: key historical influences in the USA. 2007. B-77
- Olson, D.R. The World on Paper: The Conceptual and Cognitive Implications of Writing and Reading. Cambridge: Cambridge University Press.1994
- Nicolas, S., Coubart, A., & Lubart, T. (2014). The program of individual psychology (1895-1896) by Alfred Binet and Victor Henri. L'Année Psychologique, 114(1), 5–60. <https://doi.org/10.4074/S000350331400102x>
- <https://www.cairn.info/revue-l-annee-psychologique1-2014-1-page-5.htm>
- P. David Pearson. The assessment of reading comprehension: key historical influences in the USA. 2007. B-78
- Gray, W.S. (1917). Studies of Elementary School Reading through Standardized Tests (Supplemental Educational Monographs No. 1). Chicago: University of Chicago Press.
- Huey, E. (1908). The Psychology and Pedagogy of Reading. Cambridge, MA: MIT Press.
- B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010 B-4-5
- Kelly, E.J. 'The Kansas silent reading tests', Journal of Educational Psychology, 7, 1916. B-63–80
- P. David Pearson. The assessment of reading comprehension: key historical influences in the USA. 2007. B-80
- Thorndike, E.L. (1917). 'Reading as reasoning: a study of mistakes in paragraph reading', Journal of Educational Psychology, 1917. B-329